



**ZAMONAVIY KLINIK
LABORATOR TASHXISI
DOLZARB MUAMMOLARI**
xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman



27 dekabr 2022 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqli saqlash vazirligi

www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Nazorat guruhi uchun 10 nafar sog'lom insonlar tanlab olindi. Sog'lom inson va bemorlardan olingan qon zardoblari biokimyoviy usulda tahlil qilindi.

Natija. COVID-19 bilan kasallanishi va uning kechishi ma'lum darajada bemorlarning yoshiga bog'liqdir. Shuning uchun biz barcha bemorlarni JSST tavsiyalariga asosan yoshga bog'liq ko'rsatkichlarini tahlil qildik. Bemorlarning yoshi va jinsi bo'yicha taqsimlanishini tahlili: 1-guruh 6 (18-29 yoshdagilar) 2 (3,3%) ta ayol va 4(6,6%) ta erkak, 2-guruh 25(30-49 yoshdagilar) –15ta (25%) ayol va 10 (16,6%) ta erkak, 3-guruh 28 (50-69 yoshdagilar) - 13ta (21,6%) ayol va 15(25%) ta erkak va asosiy guruh (umumiy). COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning o'tkir davrida umumiy oqsil miqdorini yoshi ulg'aygan sari kamayib borishini kuzatdik. Ayniqsa bu 50dan oshgan bemorlarda yaqqol kuzatildi va uning miqdori nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan 1,1 marotaba kam bo'lib 68,9 g/lni tashkil qildi. Bu asosan albumin miqdorini pasayishi bilan bog'liq bo'lib, uning miqdori 30-49 yoshli bemorlarda 39,8 g/lgacha kamaygan bo'lsa 50dan oshgan bemorlarda 36,9 g/lgacha ($R<0,05$) kamayishi kuzatildi. Globulinlar miqdorini ko'tarilishiga moillik esa keksa bemorlarda ortib bordi. Keksa bemorlarning qon zardobida oqsil almashinuvi ko'rsatkichlarining bunday o'zgarishi ularda a'zo va to'qimalarning shikastlanishi ustun turishidan dalolat beradi. Natijada keksa yoshli bemorlarda kasallikni og'ir kechishiga olib keladi.

Xulosa. Covid 19 bilan kasallangan bemorlarning qon zardobida oqsillar miqdori ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, albumin miqdorining statistik miqdorda kamayishi va globulinlar miqdorining ko'tarilishi ayniqsa 50-69 yosh orasidagi erkak jinsiga mansub bemorlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu esa ushbu yosh orasidagi insonlarda jigarda oqsillar sintezi jarayonini pasayishi va periferik to'qimalarda oqsillar katabolizmining kuchayishi bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar.

1. Курбонова ЗЧ, Муминов ОА. COVID-19 этиологияси ва патогенези тўғрисидаги замонавий талқин // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2022. - №5. – С. 84-86.
2. Khushbokova G.U. Babadjanova Sh.A., Kurbonova Z.Ch. Retrospective analysis of blood indicators in patients with coronavirus infection // Medicine and health sciences venice. – 2021. -22-23.
3. Kurbonova Z.Ch., Xo'shboqova G.O', Alimova U.O. Covid-19 bo'lgan bemorlarda qon korsatkichlari // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. - 2021. - №1. – С. 31-34.

**KLINIK LABORATORIYALAR UCHUN
AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING AHAMIYATI
Nuriddinova N.F., Narimanova G.A.
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Hozirgi kunda yurtimizda aholi salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va davolash, sog'lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, uzoq umr ko'rishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholi salomatligini saqlashda ayniqsa klinik laboratoriyalarning ahamiyati kattadir. Tibbiy yoki klinik laboratoriya kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash va oldini olish uchun bemorning biologik namunalarining laborator tahlillari o'tkaziladigan laboratoriyadir. Klinik diagnostik laboratoriyalar barcha tibbiyot muassasalarida mavjud.

Hozirgi XXI axborot texnologiyalari asrida, boshqa ko'plab sohalarda bo'lgani kabi, tibbiyot sohasida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bunga nanotexnologiyadan foydalanish orqali yangi diagnostik va davolash usullarining ishlab chiqilishi yorqin misol bo'la oladi. Kompyuter qo'rilmalari laborator analizatorlarda olingan natijalarni tahlil qilishdan tortib, yangi dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini aniqlashgacha bo'lgan barcha sohada qo'llaniladi.

Zamonaviy diagnostik laboratoriyalarda analizatorlar minglab turli xil tahlillarni bajaradi. Olingan natijalar laborator informatsion tizimda saralash va statistik tahlil qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Qon namunalarini olish va natijalarni tahlil qilish tibbiy laboratoriyalarning eng muhim vazifasidan bo'lib, asosan avtomatlashtirilgan analizatorlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda oqsillar, aminokislotalar, uglevodlar va boshqa ko'plab moddalarning miqdorini tekshirish mumkin. Olingan natijalar zamonaviy tadqiqot laboratoriyalarida avtomatik ravishda kompyuter dasturlari orqali shifokorlarga uzatiladi va ko'plab laborator natijalarni xotirada saqlanadi. SHu bilan birga, diagnostik laboratoriyalarda laborator informatsion tizimlarini qo'llash orqali bemor tahlil natijalarini kuzatib borish va davolash samaradorligini baholash mumkin.

Klinik laboratoriyalarda olingan ko'plab ma'lumotlarni qayta ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llash yuqori samara beradi. Ushbu tizim laboratoriya samaradorligini oshirish uchun natijalar va tegishli ma'lumotlar oqimini samarali boshqarish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan tizim ish jarayonlarini, tahlillarni va muolajalarni standartlashtirishga yordam beradi, shu bilan birga laboratoriyani samarali boshqarishni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan laboratoriyalarda analizatorlar to'g'ri kalibrlanganligi va maxsus o'qitilgan laboratoriya xodimlari ishlashini nazorat qilish kerak. Klinik laboratoriyalarda avtomatlashtirilgan laborator informatsion tizimlarni qo'llash bemorlarga sifatli xizmat ko'rsatish, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash orqali laboratoriya xodimlari ishining unumdorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish lozimki, hozirgi kunda tibbiyot sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Avtomatlashtirilgan laborator informatsion tizim tibbiyot sohasidagi ko'plab muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, klinik laboratoriyalarda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Adabiyotlar.

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. Цитологик ташхисга кириш: ўқув кўлланма. -Тошкент, 2022. - 145 б.

2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А., Муминов О.А. Лабораторный мониторинг патологии коагуляционного гемостаза у больных COVID-19 // Назарий ва клиник тиббиёт. -2021. –Б. 149-151.

3. Abdixatov Sh.Z., Kurbonova Z.Ch. Nanotexnologiya bilan davolash imkoniyatlari // Tibbiy ta'lim transformatsiyasi: megatrendlar. Toshkent, 2021. – В. 164-168. Hozirgi vaqtda nanotexnologiyadan foydalanish orqali yangi usullar ishlab chiqildi.

4. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. - 140 b.

5. Kurbonova Z.Ch. Rak oldi xolatlari, yaxshi va yomon sifatli o'smalar sitologik diagnostikasi: o'quv – uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2021. - 48 b.

6. Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2021. 56 b.

DIFFERENTIAL DIAGNOSTICS, SAMPLING AND DIAGNOSTIC ANALYSIS IN PATIENTS WITH SUSPECTED COVID-2019

Nuriddinova N.F., Nishonov A.A.

Tashkent Medical Academy

Differentiation of severe acute respiratory infection with or without COVID-2019 infection allows to determine the cases in a standard way. In this case, it is important to take samples and conduct diagnostic tests in the laboratory. It is important to carry out differential diagnosis quickly for all patients with acute respiratory infection. This allows us to determine what personal protective equipment to use and what diagnostic and treatment measures to take. The degree of co-infection is unknown, that is, other COVID-2019 infection complicated by infection. Thus, a positive diagnostic test for any infection does not negate the need for testing for COVID-2019. Differential diagnosis for all cases of severe acute respiratory infection includes nosocomial or nosocomial pathogens. taking bacterial, fungal and viral pathogens) and local epidemiological situation and bem should be carried out taking into account the characteristics of the disease. For laboratory diagnostics of the infection caused by COVID-2019 We use the PCR method.

Nasopharyngeal and pharyngeal swabs are the main types of samples for laboratory research. Samples are taken and checked by a medical staff trained in biosafety requirements and regulations. Samples are transported in accordance with the rules of transportation of biological materials. In cases of suspected 2019, it is important to isolate the patient, take samples, start supportive therapy, and start empiric treatment as soon as possible based on the general results of the differential diagnosis. Samples taken from the lower respiratory tract in certain situations from patients with a clinical diagnosis of lung diseases are: cough sputum, tracheal aspirate, bronchoalveolar lavage fluid. Tracheal aspirate can be taken from patients undergoing intubation. airborne transmission It is important to take preventive measures.